

**NAVOIY ERKIN IQTISODIY ZONASINING JOYLASHUVI VA
RIVOJLANISH IMKONIYATLARI****Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna***Qarshi davlat universiteti Geografiya
yo'nalishi 1-kurs magistranti*

Erkin iqtisodiy zona – bu mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning va barqaror rivojlanishning muhim omilidir. Jahon standartlariga javob beradigan va dunyo bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarish uchun xorijiy investitsiyalarni birinchi galda, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish kabi vazifalarni amalga oshirishda erkin iqtisodiy zonalar muhim ahamiyatga ega. Chunki bunday erkin iqtisodiy zonalar mintaqani ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini jalb etish orqali uning sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ijtimoiy sohani rivojlantirish barobarida, zamonaviy bozor infratuzilmalarini tashkil etishga imkoniyat yaratadi.

Mamlakatda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish va ular faoliyatiga doir munosabatlar bir qator huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinadi. 1996-yil 25-aprelda qabul qilingan “Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 1998-yil 30 aprelda qabul qilingan “Chet el investitsiyalari”, “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolotlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida”gi va boshqa bir qator hujjatlar bilan tartibga solinadi. EIZ to'g'risidagi qonunning 1-moddasiga ko'ra – Erkin iqtisodiy zona – mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan va aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida huquq tartiboti bo'lgan alohida maxsus ajratilgan hududdir. Erkin iqtisodiy zona hududida yuridik shaxslar va fuqarolar (jismoniy shaxslar) xo'jalik, moliyaviy va boshqa moliyaviy faoliyatning istagan turlari bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yiladi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida man etilgan faoliyat turlari bundan mustasno.

“Chet el investitsiyalari to'g'risida”gi qonunning 9-moddasiga ko'ra – davlat O'zbekiston Respublikasi hududida chet ellik investorlar investitsiya faoliyatini amalga oshirishi chog'ida ularning barcha huquqlarini kafolatlaydi va himoya qiladi. Chet ellik investor va chet el investitsiyalari uchun adolatli va teng huquqli rejim, ularning to'liq va doimiy himoyasi hamda xavfsizligi ta'minlanadi.

Erkin iqtisodiy zonada ishlab chiqaruvchilar sheriklarini mustaqil tanlash, mahsulotlarning turi, hajmi va narxlarini kuchli raqobat, bozorning talab takliflari asosida belgilash, ishchi- xizmatchi, muhandis – texnik xodimlarni ishga qabul qilish

va bo'shatish masalalarini o'z xohishicha hal etish ularga ish haqqini milliy va chet el valyutasida berish huquqiga egadirlar. Osiyodan Yevropaga, Yevropadan Osiyo, kelajakda esa boshqa qit'alarga jo'natiladigan davlat ahamiyatiga molik yuklarni global yuk tizimiga kirish xuddi shu erkin zonada hal etiladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2020 - yilning yanvar-mart oylarida mamlakatdagi jami 16 ta erkin iqtisodiy zona tarkibida 416 ta korxonalar faoliyat yuritmoqda. Erkin iqtisodiy zonalarda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi – 2300,1 mlrd. so'mni, respublikadan tashqari (eksport) ga yuklab jo'natilgan sanoat mahsulot (tovarlar va xizmatlar)lari miqdori – 303,1 mlrd. so'mni tashkil etgan (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining 13,1 foiziga teng).

O'zbekistonda dastlabki erkin iqtisodiy zonalardan biri – Navoiy viloyatining sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida hududiy tashkil etilgan Navoiy erkin iqtisodiy zonasi (EIZ) dir.

Navoiy viloyati barcha sohalarida o'ziga xos mavqeni egallaydi. Masalan, YAHMda sanoatning ulushi bo'yicha respublikada birinchi o'rinni egallaydi. Viloyat respublika hududiy mehnat taqsimotida asosan tog'-kon sanoati, xususan rangli metallurgiya, kimyo, qurilish materiallari sanoati hamda qishloq xo'jaligida go'sht-jun chorvachiligiga ixtisoslashgan. Viloyat hududi, eng avvalo, o'zining oltin zahiralari bilan ajralib turadi. Bu yerda uran, fosforit, asbest, dala shpati, marmar, qurilish materiallari xom ashyosi va boshqa konlar ham mavjud. Aynan ana shu mineral xom ashyo resurslari viloyat iqtisodiyotini shakllantirish, uning ishlab chiqarish va eksport salohiyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Oltin Oltintov, Ko'kpatas, Jeltoy, Tomdibuloq, Belpontov, Muruntov, Amantoytov, Adjibugur, Aristontol va boshqalarda, fosforit Jeroy-Sardoba konida, marmar G'ozg'on, Oqtov, Ko'kpatasda, oxaktosh Tomdibuloqda, polimetal rudalar Oqetpes, Ko'kmanachi, Visokovoltkoye, Qorabugutda, mis Qoramurunda, turli xil qurilish materiallari xom ashyosi Oytim, Besapap, Azkamar, Jeroy kabi konlarda bor.

Viloyat hududining uzoq masofada shimoldan janubga cho'zilganligi, uning o'zlashtirilgan hududlari hamda ma'muriy markazini chekka janubda joylashganligi mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tashkil qilish va boshqarishda biroz qiyinchiliklar tug'diradi. Ayniqsa, viloyatda ichki transport infratuzilmasi va aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish ancha murakkabroq. Tabiiy sharoit bilan bog'liq iqtisodiy rivojlanishdagi murakkabliklarni imkon qadar bartaraf etish hamda mavjud resurslar imkoniyatlardan samarali foydalanish maqsadida mamlakatda ilk bor erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish faoliyati amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimovning 2008 yil 2 dekabrda PF-4059-sonli "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil qilish to'g'risidagi farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonga ko'ra "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zona hududida

xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining asosiy yo‘nalishi – zamonaviy xorijiy yuqori unumli asbob-uskunalar va texnika, texnologik liniyalar va modullar, innovatsiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga yuqori texnologiyali, jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarni keng ko‘lamda ishlab chiqarishdan iborat etib belgilandi. “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi Navoiy viloyatining Karmana tumanidagi 500 gektarli yer uchastkasida joylashgan. Davlat statistika qo‘mitasi [ma'lumotlariga](#) ko‘ra, 2019 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra Navoiy viloyatida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi zamonaviy korxonalar soni 109 tani (mamlakat jamidagi ulushi 1,4%) tashkil etadi. Shundan, eng ko‘pi Navoiy va Zarafshon shaharlarida, Karmana, Konimex, Navbahor va Qiziltepa tumanlarida ham 10 dan ortiq xorijiy investitsiya ishtirokidagi zamonaviy korxonalar faoliyat olib bormoqda.

Zamonaviy yuqori ishlab chiqaruvchanlikka ega xorijiy asbob-uskunalar va texnikalar, texnologik liniyalar va modullar, innovatsiya texnologiyalarini tatbiq etish hisobiga yuqori texnologik, dunyo bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarning keng doirali turlarini ishlab chiqarish mazkur zona xo‘jalik yurituvchi subyektlari faoliyatining asosiy yo‘nalishi qilib belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019-yil 15-mayda PF-5719 sonli «Navoiy viloyatini innovatsion, yuqori texnologik, eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishlar uchun erkin iqtisodiy zona sifatida belgilash bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmonni imzoladi.

Farmonga ko‘ra Navoiy viloyati hududi 2030 yil 1 yanvarga qadar, keyinchalik belgilangan tartibda muddatni uzaytirish imkoniyati bilan, innovatsion, yuqori texnologik, eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishlar uchun erkin iqtisodiy zona sifatida belgilandi.

Navoiy viloyatini erkin iqtisodiy zona sifatida rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilg‘or tajribani joriy etish va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni yaratish;
- eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosadigan yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar chiqarish bo‘yicha zamonaviy ishlab chiqarishlarni yaratish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish;
- Navoiy viloyati ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks hamda samarali foydalanishni ta'minlash;
- kimyoviy mahsulotlar va zamonaviy qurilish materiallari, tabiiy toshlarni qayta ishlash hamda mahalliy xomashyo va materiallarga asoslangan boshqa sanoat tarmoqlarini ishlab chiqarish uchun klasterlar yaratish;
- qimmatbaho toshlar va metallarni qayta ishlash sohasida yangi ishlab chiqarishlarni yaratish, shuningdek zargarlik buyumlari ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish;

➤ viloyat korxonalari o'rtasida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish orqali yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish;

➤ viloyatning transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, viloyat hududida yirik logistika markazini yaratish;

➤ mintqa iqtisodiyotining hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlariga tayangan holda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash.

Navoiy viloyatidagi «Navoiy» EIZ ishtirokchisi maqomiga ega bo'lgan korxonalar quyidagi to'lovlardan ozod etiladi:

- yer solig'i, daromad solig'i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga soliq, mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi;

- o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun, shuningdek, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, rekonstruksiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish uchun ajratilgan mablag'larning maqsadli yo'nalishi bilan olib kelinadigan asbob-uskunalar, xomashyo, materiallar va butlovchi qismlar uchun bojxona to'lovlari (bojxona rasmiylashtiruv uchun yig'imlar bundan mustasno);

- respublikada ishlab chiqarilmaydigan va belgilangan tartibda tuzilgan ro'yxatlar bo'yicha loyihani amalga oshirish doirasida olib kiriladigan qurilish materiallari uchun bojxona to'lovlari (bojxona rasmiylashtiruv uchun yig'imlar bundan mustasno).

«Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasini tashkil qilish konsepsiyasidan va tanlangan ustuvorliklardan kelib chiqqan holda, «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasida quyidagi tarmoqlar va yo'nalishlardagi korxonalar joylashtiriladi:

- elektrotexnika mahsulotlarini ishlab chiqarish;
- telekommunikatsiya asbob-uskunalarini ishlab chiqarish;
- mashinasozlik, o'lchagich asbob-uskunalar va butlovchi qismlarni ishlab chiqarish;
- dori-darmon mahsulotlari va tibbiy jihozlarni ishlab chiqarish;
- oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va qadoqlash;
- plastik va polimer buyumlarni ishlab chiqarish.

Viloyat sanoat salohiyatining yuksakligi va, ayni vaqtda, uni og'ir sanoatga, tog'kon, undiruvchi tarmoqlarga ixtisoslashganligi, texnologik jarayonlarni zamonaviylashtirish negizida qayta ishlovchi tarmoqlarni rivojlantirish jadal amalga oshirilayotgan ayni paytda geoeologik muammolarni ham e'tibordan qoldirmaslik kerak. Ekologik muammolar, ayniqsa, Navoiy shahri va uning atrofi uchun keskin. Katta shaharda qator ulkan, ekologik jihatdan ancha "xavfli" sanoat - kimyo, rangli metallurgiya, qurilish materiallari va elektro-energetika korxonalarining mavjudligi atrof-muhitga, xususan atmosfera havosi, suv va inson organizmiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra sanoat ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish, chiqindilarni

utilizatsiya qilish, ya'ni qayta ishlash erkin iqtisodiy zona istiqbol rivojlanishining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lmog'i darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А.С.Солиев. Ўзбекистон географияси. Дарслик. –Тошкент, 2014.
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. – Т.; 2000. 6 т. 228-229 betlar.
3. internet ma'lumotlari www.wikipedia.uz
4. www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-maydagi PF-5719 sonli farmoni
5. www.navoiystat.uz Navoiy viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari